



PAN-ISLAMISM AND PAN-TURKISM: GEOPOLITICAL AND POLITICAL DIFFERENCES

Dildora Yusupova

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: yu.dildora@list.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, Russian Empire, Ottoman Empire, Pan-Islamism, Pan-Turkism, Islam, nation, ideology.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article examines the threats posed by the ideologies of reformism, pan-Islamism, and pan-Turkism to the Russian Empire in the late 19th and early 20th centuries, as well as the measures taken against them. In addition, the article analyzes the history of the ideologies of pan-Islamism and pan-Turkism, which are closely related to modern terrorism and the use of religion for political purposes. A philosophical analysis is conducted of the influence of the transformed teachings of pan-Islamism and pan-Turkism of the past period on the relations between different individuals and states at the present time.

PANISLOMIZM VA PANTURKIZM: GEOSIYOSIY VA SIYOSIY TAFOVUTLAR

Dildora Yusupova

falsafa fanlari bo'yicha (PhD), dotsent

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: yu.dildora@list.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, Rossiya imperiyasi, Usmoniy imperiyasi, panislomizm, panturkizm, islom dini, millat, mafkura.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi islohotchilik, panislomizm va panturkizm mafkuralarining Rossiya imperiyasi uchun yaratgan tahdidlari va ularga qarshi ko'rilgan choralar haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada panislomizm va panturkizm mafkuralarining tarixi, bugungi

kundagi terrorizm va dinni siyosiy manfaatlar uchun foydalanish bilan bog'liq holatlar bilan chambarchas bog'lanib, o'tgan davrdagi panislomizm va panturkizm mafkuralarining ta'limotlarini o'zgartirgan holda turli shaxslar va davlatlar orasidagi munosabatlarga ta'sir falsafiy tahlil qilingan.

ПАНИСЛАМИЗМ И ПАНТЮРКИЗМ: ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ

Дилдора Юсупова

доктор философии (PhD), доцент

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, узбекистан

E-mail: yu.dildora@list.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, Российская империя, Османская империя, панисламизм, пантюркизм, ислам, нация, идеология.

Аннотация: В данной статье рассматриваются угрозы, которые представляли идеологии реформизма, панисламизма и пантюркизма для Российской империи в конце XIX и начале XX веков, а также меры, принятые против них. Кроме того, в статье анализируется история идеологий панисламизма и пантюркизма, которые тесно связаны с современным терроризмом и использованием религии в политических целях. Проводится философский анализ влияния трансформированных учений панисламизма и пантюркизма прошлого периода на отношения между различными личностями и государствами в настоящее время.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaqin Sharq va Turkistonda paydo bo'lgan panislomizm va panturkizm kabi falsafiy-mafkuraviy ta'limotlarni tarix falsafasi nuqtai nazaridan yondashgan holda o'rganish, ularning bir-biridan farqli va o'ziga xos jihatlarini, Yaqin Sharq va Turkistonning ichki hamda tashqi siyosatiga ta'sirini ilmiy dalillar asosida ochib berish bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni yoritishda A.Ganin, N.Xalfin, Boymirza Hayit, Sh.Aripov kabi olimlarning tadqiqot ishlariga hamda arxiv hujjatlariga e'tibor qaratilgan. Mavzuni yoritishda tarixiylik, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Islohotchilik harakatining yirik yo'lboshchilaridan biri bo'lgan Fayzulla Xo'jaev fikriga ko'ra, "islohot harakati "demokratiya mafkurasi" bo'lib, XX asrning 30-yillarigacha yoshlarni tarbiyalash vositasida milliy ozodlikka erishish uchun intilish edi.

Ammo chor va sovet ruslari bu harakatni “panislomizm va panturkizm mafkurasi” deb baholadilar. Bu harakat Sovet Rusiyasi hokimligi davrida Sovet tuzumiga, kommunistik mafkuraga zarar etkazuvchi holat sifatida qat’iy ravishda oldi olindi va a’zolari ta’qibga uchradi” [1, – B. 238].

Darhaqiqat, kommunistik mafkuraga zid bo’lgan islohotchilik harakati negizidagi panturkizm va panislomizm mafkuralari milliy va diniy birlikka targ’ib qiluvchi mafkuralar bo’lganligi aniq. Chor va sovet ruslari nafaqat boshqa millat vakillari, balki boshqa din vakillari bo’lganligi uchun ham bu mafkuralarni o’zlarining tuzumlariga qarshi mafkura sifatida baholaganligi tabiiy. Chunki har qanday davlat o’z boshqaruv tizimidagi mafkuraga qarshi bo’ladigan har qanday mafkurani yo’q qilish chorasini ko’radi. Shu bois, Chor va rus hukumati davrida panturkizm va panislomizm mafkuralari orqali erishilishi mumkin bo’lgan har qanday holatning oldi olingan. Ayniqsa, jadidlar ushbu mafkuralarni tarqatuvchi shaxslar bo’lganligi bois, aynan ular qatag’on siyosatining qurboniga aylandilar.

Xususan, 1916-yil 13-iyul kuni Jizzaxda qo’zg’alon bo’lib o’tadi. Ushbu qo’zg’alonda ruslar mahalliy aholi tomonidan o’ldiriladi. Bu haqida “Islom aqidaparastlari asirga olingan rus erkaklarini islomni qabul qilishga majbur qilishdi. Ma’lumki, buning uchun sunnat marosimini o’tkazish kerak edi. Asirlikda bo’lgan baxtsiz odamlar, mahalliy aholining g’azablangan olomoni tomonidan o’ralgan va tahdid qilib, ko’rsatilgan marosimni darhol amalga oshirish niyatida shunga o’xshash talablarni ilgari surganlarida qanday his qilishlarini tasavvur qilib bo’lmaydi. Rad etish o’lim bilan jazolanardi” – deydi rossiyalik tarixchi olim Andrey Ganin. Shuningdek, u: “... qo’zg’olonchilarning shiorlaridan biri “g’azovot” g’oyasi – kofirlarga qarshi muqaddas urush bo’lib, u amalda barcha ruslarni o’ldirish istagida ifodalangan. Jizzax tumanida mahalliy aholi “barcha ruslarni o’ldiramiz” deb ochiq aytishgan. Yosh turklar va panislomistik g’oyalar birmuncha pul o’tkazdi” [2, – C. 163] – deb qo’shimcha qiladi. Bu bilan Andrey Ganin panislomizm va panturkizm mafkuralarining ruslar uchun juda xavfli mafkura bo’lganligiga ishora qiladi. Shuningdek, u mustamlaka siyosatini oqlagan holda aybni mahalliy aholiga qo’yadi.

Ma’lumki, bugun musulmon olami juda murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechirmoqda. Yaqin Sharq va bir qator mamlakatlarda iqtisodiy tanglik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik hamda qurolli to’qnashuvlar ko’zga tashlanmoqda. Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarida islom dini bilan niqoblanayotgan diniy tashkilotlar faoliyati ochiqdan-ochiq zo’ravonlik, insoniylikka zid vahshiyliklarga asoslangan amallarga qo’l urayotgan turli guruh va jamoalar soni kundan-kunga o’sib bormoqda.

“Dunyoning turli-tuman joylarida oshkora yoki yashirin holda faoliyat yuritayotgan terroristik uyushmalar hamda ularni moddiy va moliyaviy ta'minlab turgan guruhlar yoki bo'lmasa, ayrim puldorlarning uzoq yillar mobaynida davom etib kelayotgan xalqaro miqyosdagi o'zaro aloqalari haqida davlatlar maxsus xizmat organlari bergan isbot va dalillar shuni ko'rsatadiki, musulmon mamlakatlarida harakat qilayotgan terroristik tashkilotlar islomdan faqat jipslashtiruvchi mafkura sifatida foydalangan, so'ngra islom ular uchun keraksiz bir narsaga aylangan va bugun esa jahonning siyosiy tuzilmasini keskin o'zgartirib, hokimiyatni qo'lga olish asosiy maqsad sifatida qo'yilganligi ayon bo'lib qolmoqda. Zero, dunyo bo'ylab qiyinchilik bilan tarqalib borayotgan demokratiya, zamonaviylashuv jarayoni barcha destruktiv kuchlarni birlashtirmasligi mumkin emas. Faqat shu yo'l bilan maqsadga erishishni aksiltizim kuchlar va uning avangard safidagi terroristlari juda yaxshi anglab etishadi” [3, – B. 34]. – deydi o'zbekistonlik siyosatshunos olim Shavkat Aripov.

Darhaqiqat, musulmon mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan ayrim terroristik tashkilotlar islomni faqat mafkuraviy jipslashiruvchi vosita deb bilgan holda, o'zlarining dastlabki harakatlarida islom g'oyalarini olg'a surgan bo'lsalar, vaqt o'tishi bilan bu g'oyalar ular uchun ikkinchi darajali masalaga aylangan. Demokratiya va zamonaviylashuv jarayoniga qarshi turishni istovchi destruktiv kuchlar o'z maqsadlariga etishish yo'lida islomdan siyosiy manfaatlari uchun qurol sifatida foydalanganlar. Shuningdek, uning ma'naviy tamoyillarini chalkashtirib, dunyoda mavjud siyosiy tizimlarni zaiflashtirishga uringanlar. Bu esa, boshqa davlatlarning musulmonlar masalasidagi fikrlarini yomonlashuviga olib keldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi uchun eng katta xavf bu panislamizm va panturkizm mafkurasi edi. “Panislamizm - ...Islomchilik g'oyasi Turkistonda mintaqa jamoatchiligi ongida islom dini va jamiyatni isloh qilish, uni yangilash, boshqa sivilizasiyalarning ilg'or ilmiy, texnikaviy va madaniy yutuqlaridan foydalanish, fan, ta'lim sohalarini rivojlantirish g'oyalari bilan uyg'unlashgan tarzda kuchayib borgan.

Turkiston o'lkasi general-gubernatori S.M.Duxovskiy “Turkistondagi islom” (T., 1899) nomli maxsus ma'ruzasida Rossiya imperiyasida yashovchi musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi kuchayganligini e'tirof etib, ma'murlarni panislamizmga qarshi kurashga chaqirgan” [4, – B. 668]. Xususan, general-gubernator S.M.Duxovskiy ushbu ma'ruzasida: “Panislomizm g'oyalarining Turkiyada va bizning tatarlar o'rtasida tarqalishi biz uchun siyosiy jihatdan ayniqsa zararlidir” [5] – deya, alohida ta'kidlab o'tgan. Bu bilan Duxovskiy panislomizmni musulmonlar orasida tarqalishi ularni xristianlarga qarshi birlashishi xavfi borligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Ayniqsa, u Turkiya musulmon olami uchun yagona markaz bo'lganligi bois, xalifa tomonidan panislomizm mafkurasi keng targ'ib qilinsa, bu jarayon Rossiya

imperiyasi tarkibidagi tatarlarga hamda imperiyaning ichki va tashqi siyosatiga ham zarba berishi mumkinligini tushuntirishga harakat qiladi. Shuningdek Duxovskiy, panislomizm mafkurasi keltirib chiqaradigan xavfga qarshi qat'iy choralar ko'rilishi lozimligiga ham urg'u berib o'tadi.

“... Sovet Rossiyasi va SSSR rahbariyati panislomizmga qarshi kurashda xuddi turkchilik va turonchilikka nisbatan bo'lganidek, qat'iy choralar ko'rgan. Ular panislomizm va panturkizm jadidchilik va bosmachilik harakatining asosiy mafkurasi deb hisoblashgan” [4, – B. 668].

“Panturkizm (pan... va turk) - turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasiga Rossiya va Angliya imperiyalari, shuningdek, SSSR tomonidan berilgan rasmiy nom. Bu harakat ildizlari ancha chuqur bo'lsa ham, biroq u XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Usmonli turk sultonligi va chor Rossiyasining turkiy xalqlar yashaydigan hududlarida keng tarqalgan. Yosh turklarning partiyasi “Ittihad va taraqqiy” bu qarashni o'z g'oyasi sifatida qabul qilgan. Keyinchalik Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyondalari, yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar ham uni o'z dasturiy qarashlari sifatida e'tirof qilishgan. Turkistonda podsho Rossiyaning zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari, turli norozilik chiqishlarini mustamlakachi ma'murlar panturkizm va panislomizm oqimlari ta'sirida uyushtirilgan, deb da'vo qilishgan” [4, – B. 671].

Chunonchi, O'zbekiston SSSR Markaziy davlat tarixiy arxivi direktori, tarix fanlari doktori, professor Naftula Aronovich Xalfin (1921-1987)ning “Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi (XIX asr 60-90-yillar)” [6] nomli asarida “Jadidlar, panislomchilar, panturkchilar va boshqa burjua millatchilari va reaksionerlari Turkiston xalqlari o'rtasida dushmanlik tuyg'ularini, Rossiyaning boshqa xalqlarga, birinchi navbatda ruslarga nisbatan nafratni qo'zg'ashga harakat qildilar. Ular podsholikning mustamlakasiga aylantirilgan O'rta Osiyo xalqlari boshiga tushayotgan azob-uqubatlarning aybdori sifatida rus xalqini ayblab, tuhmat qilishga urindilar. Bu faktlarning aniq tortishuvi, tarixiy voqelikning buzilishi edi” [6, – C. 443] – deydi.

Bu bilan Xalfin bir tarafdin jadidlar, panislomchilar, panturkchilar va boshqa burjua millatchilarini rus millatiga qarshi nafratni uyg'otilishiga sababchi deb ko'rsatishga urinsa, ikkinchi tomondan tarixiy voqelikni buzilishiga ham ularni aybdor qiladi. Bu fikr orqali, avvalo, uning kimning manfaati tomonidan fikr yuritganligini anglash qiyin emas. Chunki, jadidlar, millatparvarlar hamisha millat manfaati uchun harakat qiluvchilar hisoblanadi. Agar ularning harakati Rossiya imperiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, bu ularni qoralashga asos degani emas. Xususan, aynan millatni uyg'otuvchi, uning mustaqilligi, ozodligi uchun jamiyatni birlashtirishga chaqiruvchi shunday vatan fidoiylari bo'lmas ekan, jamiyat, millat o'zga millatning

qaramligi ostida haq-huquqlari, milliy va diniy qadriyatlari toptalgan holda yashashga majbur bo'ladi.

Ayniqsa, panislomizm va panturkizm mafkuralari bugun ham Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo hududlarida tarixiy ildizlar asosida o'z mavjudligini saqlab kelayotganligi, bu mafkuralarning sinkretlashgan holda yangicha ko'rinish va maqsadga yo'naltirilganligi ushbu hududlarning yoshlari tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun, o'tgan davrdagi panislomizm va panturkizm mafkularining tarixini hamda Rossiya va Angliya imperiyalariga ta'sirini o'rganish hozirgi davr uchun ham muhim masalala hisoblanadi. Chunki, aynan shu ta'limotlar tarixi bizga bugungi tendensiyalarni ishlash mexanizmini ham ko'rsatib beradi.

Usmoniy imperiyasi o'tgan asrda Sharqda G'arbga mustamlaka bo'lmagan hudud hisoblanardi. Biroq boshqa musulmonlar yashaydigan mamlakatlar Angliya va Rossiya imperiyalarining mustamlakasiga aylangan edi. Shu bois, Usmoniy imperiyasi mustamlakaga aylangan musulmon mamlakatlari uchun bari bir o'z liderligini saqlab qolishga harakat qilgan.

“Yaqin Sharqdagi buyuk davlat siyosati va arab-isroil ziddiyati” [7] deb nomlangan jamoaviy monografiyada Konstantinopoldagi vaqtinchalik tashqi ishlar vaziri rossiyalik elchi Neratov Anatoliy Anatolevichga 1911-yil may oyida yuborilgan maxfiy hujjatda: Turkiyada Rossiya imperiyasi uchun xavf tug'diradigan ba'zi holatlar o'z kuchini saqlab qolmoqda; Rossiya musulmonlari, xususan, Qrim, Orenburg va Kavkaz tatarlari o'rtasida panislomizm va panturkizm targ'iboti turk ma'naviy, fuqarolik va harbiy tashviqotchilari tomonidan faol davom ettirilmoqda...; Berlin vazirlar mahkamasining qisman hohishiga ko'ra mahalliy “Usmonisher Lloyd”... agar u jangari panislomizm va panturkizm targ'iboti boshqa davlatlar tomonidan olib ketilsa, bu ta'limotlarni Usmoniylar imperiyasidan tashqarida targ'ib qilish Turkiya uchun haqiqiy va inkor etib bo'lmaydigan xavfni turklarga ko'rsatib beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Turkistondagi islohotchilik harakati birinchi navbatda yoshlarning milliy ozodlikka intilishini, demokratik mafkuraga asoslangan o'zgarishlarni targ'ib qilgan.

Ikkinchidan, Chor va sovet hokimiyati panislomizm va panturkizm mafkularini o'z tizimlariga xatar tug'diruvchi mafkuralar sifatida baholagan.

Uchinchidan, panislomizm va panturkizm mafkuralari bugungi kunga kelib yangicha qiyofa kasb etgan holda yoshlar tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani hozirgi kunda ham Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlarida sezilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Боймирза Ҳайит. Туркистон Россия ва Хитой оралиғида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023.

2. Ганин А.В. Последняя полуденная экспедиция Императорской России: Русская армия на подавлении Туркестанского мятежа 1916-1917 гг. // Русский сборник. Исследования по истории России. Т. 5. – Москва: 2008.
3. Арипов Ш.И. Жамият тараққиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари (Мусулмон шарқи мисолида): Сиёсий фанлар номзоди.....диссертацияси. – Т.: , 2008.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: Панисломизм. 6-жилд. Мирий-Пархиш. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003.
5. ЦГА РУз. Ф.И-1, оп. 32, д. 384, л. 7. // Всеподаннейший доклад Туркестанского генерал-губернатора, генерала от инфантерии Духовского. Ислам в Туркестане. – Ташкент. 1899.
6. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-90-е годы XIX в.) – Москва: Наука, 1965.
7. Ближневосточная политика великих держав и арабо-израильский конфликт. Монография: Коллектив авторов. – Нижний Новгород: ИСИ ННГУ, 2008. Том II.